

VIZUAL ASARLARDA RANG

MAHMUD TAJIMURADOV

o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
Nukus, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-7>

Annotatsiya: ushbu maqolada ranglarning ramziy ma'nolari, ekranda badiiy obraz yaratishning ahamiyati to'g'risida ayrim mulohazalar va takliflar keltirilgan.


Kalit so'zlar: Vizual, yorug'lik oqimi, asosiy rang, RGB, yorqin, to'q, ramziy ma'no.

KIRISH

Rang odamzotni qadim zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Fizik, ruhshunos, faylasuf va san'atshunos kabi soha mutaxassisleri tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Miloddan avvalgi IV asrda yunon olimi Aristotel rangning har xil ko'rinishlarini tushuntirib berishga harakat qilgan. XVII asrda Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, rang doirasini yaratdi. Oq yorug'likni ko'p ranglarga taqsimlanib ketishini isbotlagan, ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Nyuton quyosh yorug'ligi asosida o'z nazariy farazini amalda isbotladi. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini uch qirrali prizmadan o'tkazib, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi hosil qildi. Ekranda ko'ringan ranglar spektr ranglar bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan edi: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha rang.

ASOSIY QISM

Nemis shoiri va san'atshunosi I.V. Gyoteni ko'proq ranglarning kishi tanasiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote "Ranglar haqidagi ta'limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq turlarga ajratib, iliq (sarg'ish - qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan" [1, 20 b.]. Iogaan Gyote ranglar kontrasti, yorug'lik va ko'zning rangga moslashuvi hodisalarini o'rgangan, shuningdek boshqalarnikidan tubdan farq qiluvchi rang doirasini ishlab chiqdi. XIX asrda T. Yung va O. Frenellar to'lqin nazariyasini ishlab chiqdilar, keyinchalik elektromagnit nazariyasiga aylandi A. Stoletov fotoeffekt qonunini kashf qildi. Olimlar F.O. Runge, V. Ostvald, A.G. Mansell, M. V. Lomonosov, G.Gelmgoltslar turli xil tadqiqotlar o'tkazib, rangshunoslik fanining rivojiga o'zining katta hissalarini qo'shdilar. Olimlar D. Guild va D. Rayt tomonidan o'rganishlar natijada RGB va CMYK tizimlari yaratilib, tomoshabinlarga rangga boy, his-tuyg'ularga to'la tasvirlarni namoyish qildi. Har bir yo'nalishning ustuvor ranglari mavjud. Rassomlikda asosiy ranglar qizil, sariq va ko'k bo'lsa, fotografiya, kino va televideniye sohalarida esa qizil, yashil va ko'k ranglar. Bosma nashrlarda moviy, sariq, binafsha va qora asosiy ranglar.



Rassomchilikda asosiy ranglari. Foto, kino va televideniya asosiy ranglari. Bosma nashrlarning asosiy ranglari. (1 rasm)

Rassomlikda qizil, sariq va ko'k rangli bo'yoqlardan barcha rang palitrasi hosil bo'ladi. Fotografiya, kino va televideniya asosiy ranglar yorug'lik oqimi vositasi hodil bo'ladi. Qizil va yashil rangli bo'yoqlar bilan sof sariq rang yaratib bo'lmaydi. Ammo qizil va yashil rangli filtrlar yordamida yorug'lik oqimlarini aralashsaksak, natijada biz haqiqiy yorqin sariq rangni ko'ramiz. Rassomlar yashil rang o'rniga sariq ranglarni asosiy ranglar deb hisoblashadi. Yashil rang ko'k va sariq aralashmasidan olinadi. Rassomlar qizil, sariq va ko'k ranglar palitrasidan xilma-xil ranglarni yaratishi mumkin. Foto, kino va video texnologiyalarida bo'yoqlar bilan emas, balki turli xil yorug'lik oqimlarining aralashmasidan xosil bo'ladi, shuning uchun ham asosiy rang yashil rangdir [2, 8 b.].

1855 yilda D. K. Maksvell rangli fotografiya asoslarini nazariy jihatdan asoslab berdi. 1861 yilda ilk bora rangli fotografiya tasvirga olindi. 1899 yildan boshlab rangli kinos'yomka qilishga harakatlar boshlangan. Dastlab rangsiz kinoplyonkalar qo'lda bo'yali namoyish qilingan. 1950 yilgacha 80 dan ortiq rangli kinotexnologiyalar yaratildi. 1928 yilda dastlabki rangli televideniye mexanik modeli yaratildi. Elektron rangli televideniye 1950 yilda ixtiro qilindi. 1990-2009 yillarda raqamli televideniye tizimiga o'tish amalga oshirildi [3, 22-43 b.].

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko'p tadqiqotlarini qoldirib ketganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi: Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al javohir-ma'rifat al javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan [4, 10 b.].

Inson ko'zi binafsha rangdan qizil ranggacha hamma spektr ranglarini ko'radi. Ekran san'atida rang

kuchli ta'sirga ega tasviriy vosita sanaladi. Rang nafaqat chiroyli va rang-barang ko'rinishni, filmning g'oyasini ochib berishda, filmning ruhiyatini yaratishda, zamon va makonni anglashda, qahramonning ichki histuyg'ularini ochib berishda, kiyim-kechak, dekoratsiya, qahramonning yuz ifodasidagi ranglarning o'zgarishi tomoshabinga kuchli ruhiy ta'siri ko'rsatadi. Ekran san'ati ijodkorlari dunyoning haqiqiy rangli tasviridan foydalanib, rang illuziyasini yaratadilar. Hayotimizning har bir jabhasida, har onida rangni uchratamiz va foydalanamiz. Rang ifodasi va ramziy ma'nolarini tushunmas ekansiz, rang tanlashda va undan foydalanishda qiynalasiz. Rang haqida yetarli ma'lumot bo'lmas ekan, ijodkor tomoshabinga, o'z oldiga qo'ygan maqsadini yetkazishi qiynlashadi, noto'g'ri yetkazadi, ba'zan boshqa ma'no va mazmundagi tasvirni havola qilishi ham mumkin. Rangni idrok etishimiz hissiy va estetik xususiyatga ega. Rangning idrok etishda har bir millatning ma'naviyati va madaniyati, diniy e'tiqodi, insonning dunyoqarashi, jinsi, kasbi, madaniy an'analari ta'sir ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik insonlar ranglarni bir-biriga o'xshash idrok etishadi. Tasviriy san'atning boshqa soxalaridagi kabi ekran san'atida ham ranglar, xromatik va axromatik ranglarga bo'linadi. Rang tusiga ega bo'lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Oq va qora ranglar, ulardan hosil bo'lgan kulrang axromatik hisoblanadi.

Ranglar iqlimi jihatdan issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga quyoshni, olovning taftini eslatuvchi qizil, zarg'aldoq, sariq, jigarranglar kiradi. sovuq ranglarga esa muz, osmon va suvning rangini eslatuvchi yashil, moviy, havorang, ko'k, binafsha ranglari kiradi. Issiq ranglar spektr tarkibining uzun to'lqinlarida joylashgan. Sovuq ranglar spektrning qisqa to'lqinidan joy olgan. Turli xil to'lqin diapazonlari joylashgan ranglar shu to'lqinlarga mos ravishda insonga ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Spektrning uzun to'lqinlarida joylashgan issiq ranglar quvonch, faollik, do'stlik, ishonch, yangilikka intilish, g'ayrat, rivojlanish, olijanoblik, boylik, tinchliksevarlik kabi histuyg'ularini uyg'otadi. Spektrning qisqa to'lqinlarida joylagan sovuq ranglar tashvish, qo'rquv, sirli, o'lim, befarqlik, qat'iyatsizlik, bo'shliq, sovuqlik, notinchlik kabi holatlarni ifodalaydi. Ekran san'ati ijodkorlari issiq va sovuq ranglarning kombinatsiyasi yordamida rangli effekt va rang illyuziyasini yaratadi. Tomoshabinga ekrandagi epizodga mos holatni ranglar iqlimi orqali yetkazib beradi. Quyosh - issiq, oy - sovuq. Ularni kun va tunda ko'rishimiz mumkin. Buning o'zi ham bir-biri bilan kontrastni yuzaga keltiradi. Shu ma'noda hayotning har bir jabhasi kontrastlardan iborat deyish mumkin. Masalan, yaxshilik va yomonlik, muvaffaqiyat va omadsizlik, do'st va dushman kabi kontrastlar juda ko'p. Kontrastlar filmning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, tomoshabinning dunyoqarashi va fikr salohiyatini boyitadi. Insonning vizual idrok etishida orttirgan tajribasi va tasavvuri juda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, bahor deyilsa yashil rang, kuz desak sariq va zarg'oldoq ranglar, tun desak qora va qoramtir ranglar ko'z oldimizga keladi. Har bir ijodkor rang, yorug'lik va soya bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi muhim. Asosiy va qo'shimcha ranglar kontrastidan

foydalanish, bir vaqtning o'zida ularni taqqoslash, rangning to'yinganligi, rangli dog'lar kuchini anglash rejissyor, operator, rassom va mantaj ustalari ishi sifatini oshiradi.

Rang doirasida rang kontrasti aniq ko'rinish turibdi. Asosiy ranglarga qo'shimcha ranglar kontrast sanaladi. Qizil - moviy, yashil - binafsha, ko'k - sariq, oq - qora, och - to'yingan ranglar bir-biriga kontrast ranglar. Bundan tashqari, issiq va sovuq ranglar ham kontrast ranglar sanaladi. Ijodkorlar bunday ranglarning kontrasti orqali ruhiy zo'riqish, kelishmovchilik, bir-biriga teskari qarash, isyon kabi dramatik holatlarni tomoshabinlarga havola qilishadi. Rangni vizual idrok etishda shakldan tashqari, kundalik hayotimizda va adabiyotda keng qo'llanilib, tilimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Misol uchun: yashil makon, sariq matbuot, qizil kitob kabi so'zlar. Rang ramziy va majoziy ma'nolarga ega. Rangning ramziy va majoziy ma'nolari paydo bo'lishi qadim zamonlardan tabiat xodisalariga munosabatlar, o'g'itlar, an'analari, sehr-jodu va diniy qarashlar ta'sirida shakllangan. Sharq va G'arb ta'sirida rangning ramziy-majoziy ma'nolari shakllandi. Ayniqsa, islom dini g'oyalari rangning rivojlanish katta xissa qo'shdi. Undan tashqari, insonlarning madaniy va maishiy hayotidagi buyumlar, tasvirdagi rangli bezaklar, gilamlardagi naqshlardagi ranglar hayot haqida va ilohiy qarashlari aks ettiruvchi rangning ramziy ma'nolari shakllantirilib, rangni asosiy vizual ifoda vositalaridan biriga aylanishiga sababchi bo'ldi. Oltin (sariq) shunday ramziy so'zlar bilan ta'riflangan: shon-shuhrat, muvaffaqiyat, boylik, bayram... kabi so'zlar bilan ifodalagan. Bu rang shifobaxsh sanaladi (Umar Xayyom). Shu bilan birga, sariq rang ham salbiy ma'noga ega, oshqozon kasalliklarining ramzi [5, 15 b.].

Rangning ramziy va majoziy ma'nolari haqida juda ko'p kitoblar va maqolalar yozilgan. "Ranglar nafas olish jarayoniga, yurak urishiga tasir qiladi. U yoki bu ranglarni kuzatib, qon bosimining oshishi yoki tushishini kuzatish mumkin, shuningdek, yaralarni tuzalish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Ranglar sovuq yoki issiqni sezdiradi, chanqoqlik yoki ochlikni chaqiradi, insonni ruhan tinchlantiradi, va yoki, aksincha tajovuzkor holatga olib keladi" [6, 12 b].

Ekran san'atida turli xil ranglar film qahramonlarining ichki kechinmalarini, quvonch-shodligini va ozobu-uqubatlarini tomoshabinga etkazib berishda kuchli vizual ifoda vositasidir. Rang filmning g'oyasi, umumiy dramaturgiyasini, qahramonning xistuyg'ularini, dekoratsiyani, kiyim-kechak, rang effektlarini yaratishda, oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda juda samarali vositadir. Bunda esa bizga rangning ramziy va majoziy ma'nolarini bilishimiz katta yordam beradi. Keling, ba'zi ranglarning ramziy va majoziy ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Qizil rang o'ziga jalb qiluvchi, faollik, o'ziga ishonch, energiya, yuqori kayfiyat, hayajon, sevgi, sog'lik, kuch, yutuq, g'alaba, shijoat, xushomad, etakchilik, qat'iyat, kurashuvchanlik, ehtiros, o'zini namoyon qilish kabi ijobiy jihatlar qatori tajovuzkorlik, xavf, o'lim, zo'ravonlik, murosasizlik, shafqasizlik, halokat, o'jarlik, g'azab, urish, zolim, qotillik, qasos, bezovtalik, zulm, qon kabi salbiy xolatlarni tomoshabinga yetkazib berishda ishlatiladi. Qizil rang asosiy rang sanaladi. Qizil kabi yorqin

ranglar ko'paysa ijobiy ta'siri oshadi. Qora va to'q qoramtir ranglar qo'shilsa, salbiy tomonga o'zgaradi.

Zarg'aldoq rangning ijobiy xususiyatlari faollik, ijobiy fikrlar, g'ayrat, rivojlanish, kuch, bitmas-tuganmas energiya, yoshlik, muhabbat, erkinlik, hayajon, bardosh, kechirim, g'urur, quvnoqlik, badiiy iqtidor, mehribonlik, do'stona, sezgirlik, xushmuomalalik kabi xususiyatlarni namoyon qilsa, salbiy xususiyatlari manmanlik, hayajon, takabburlik, tajovuzkor, yuzakilik, g'ayrioddiy, g'alati, hayolparastlik kabi insoniy fazilatlarini ifodalaydi. Zarg'oldoq rang qizil va sariq ranglardan xosil bo'ladi. Qizil yoki qora ranglar ko'paysa salbiy ta'sir oshadi, aksincha sariq yoki oq ranglar ko'paysa ijobiy xususiyatlari oshadi. Jigarrangning ijobiy xususiyatlari kuch, ishonch, sabr-toqat, bardosh, yangilikka intilish, sukunat, tinchliksevarlik, ahd, etuklik, barqarorlik, fidoyilik, sog'lom fikr tushunchalarni ifodalaydi. Salbiy xususiyatlari yolg'izlik, siqilish, umidsizlik kabi insonning xolatlarini ko'rsatib beradi. Jigarrang qizil va sariq raglarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Jigarrangda sariq yoki yorqin ranglar ko'paysa, ijobiy xususiyatlari ko'payadi. Qizil yoki to'q qoramtir ranglar aralashmasining ko'payishi orqali salbiy jihatlariga urg'u beriladi.

Sariq rangdan yorqin, donolik, yosh, jonli, quyosh, yoshlik, jo'shqinlik, harakat, energiya, do'stlik, olijanoblik, boylik, zukkolik, o'ziga xoslik, quvonch, sezgirlik, bag'rikenglik, halollik, ishonch, faollik, adolat, erkinlik, qiziqarli, shon-shuhrat, etuklik, tajriba, hayotiylik, yaxshi kayfiyat kabi insoniy xarakterlarini ochib berishda ishlatiladi. Salbiy xususiyatlari kinoya, xiyonat, beparvolik, tanqidiy suhbatni yoqtirish, g'iybat, murosasizlik, ajralish, soxta kamtarlik, mas'ulyatsizlik, ogohlatirish, ehtiyotkorlik, asabiylashish, zaharli, sun'iy, xavfli, og'riqli, jinnilik, sharmandalik jihatlarini ko'rsatishda ishlatiladi. Sariq rangda to'q va qora ranglar nisbati oshsa salbiy, oq yoki yorqin ranglar ko'paysa ijobiy tomonlarni ochib beradi. Yashil rangning ijobiy xususiyatlari – tabiat, hayot, muvozanat, osoyishtalik, yoshlik, umid, tinchlik, sukunat, yaxshilik, barqarorlik, imkoniyat, taraqqiyot, mas'uliyat, farovonlik, ishonch, xavfsizlik, diqqatni jamlash kabi holatlarda ifodalanadi. Salbiy xususiyatlari egoist, rashk, kasallik, tortishish, baholash, ichimdagini top, xudbinlik, rashk, beparvolik, umidsizlik kabi insoniy xarakterlarni ochib berishda foydalaniladi. Yashil rang ko'k va sariq ranglardan hosil bo'ladi. Ko'k yoki qora ranglar ko'paysa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sariq yoki oq ranglar ortishi bilan ijobiylik ortib boradi.

Moviy rangning ijobiy xususiyatlari sokin, orzu, yengillik, kamtarlik, muvaffaqiyat, ijodkorlik, tinchlik, barqarorlik, tozalikda, salbiy xususiyatlari beparvolik va xayolparastlik kabi xislatlarni ochib berishda qo'llaniladi. Moviy rang yashil va ko'k rang qo'shilishidan xosil bo'ladi. Moviy rangga qora yoki qoramtir rangni qo'shilishi salbiy, yorqin ranglar qo'shilishi ijobiy xususiyatlarini yanada oshadi. Moviyga qaysi rang qo'shilsa shu rangning xususiyatlari paydo bo'ladi. Ko'k rangning ijobiy xususiyatlar tinchlantiruvchi, sokin, birlik, keskinlikni yumshatish, barqarorlik, tashkilotchilik, tun, ruhiy kuch, doimiylik, qat'iyatli, fidoyilik, jiddiylik, orzu, sirli, tush, idealizm,

odoblilik kabi insonga xos holatlarni ochib beradi. Salbiy xususiyatlari sovuq, nam, tashvish, fanatizm, itoatkor, zaiflik, tushkunlik, kasallik, haddan tashqari jiddiylik, qayg'u kabi insonning ruhiy xolatlarini namoyon qiladi. Ko'k rangda oq yoki yorqin ranglar ko'proq bo'lsa, ijobiy xususiyati ko'payadi. Qora yoki to'q rang ko'paysa salbiy tomonga o'zgaradi.

Binafsha rangning ijobiy xususiyatlari jo'shqin, badiiylik, ijodkorlik, matonatli, talabchan, hayajon, samimiy, shahvoniy hislarni uyg'otuvchi, sezgi, o'smirlilik bo'lib, bu rangdan shu xususiyatlarni tasvirlashda foydalaniladi. Salbiy xususiyatlari manmanlik, tajovuzkor, o'zgaruvchan, og'riqli, beqaror, tanqidiy qarash, qo'pollilik, qanday bo'lmasin o'z maqadiga erishish kabi insoniy his-tuyg'ularini ko'rsatadi. Binafsha qizil va ko'k ranglarning qo'shilishidan xosil bo'ladi. Binafsha rangga qizil yoki yorqin qo'shilsa ijobiy xususiyatlari ortadi, ko'k yoki to'q qora rang nisbatining oshishi salbiy xususiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Pushti rangning ijobiy xususiyatlari, rivojlanish, beg'uborlik, mayinlik, romantika, nafis, shirin, mehr-muhabbat, do'stlik, nazokat, yetuklik, mehribonlik, sevgi, sezgirlik, ehtiros kabi insoniy his-tuyg'ularni ifodalaydi. Salbiy xususiyatlari sayoz fikrlash, ayyorlik, o'zini fosh qilish, aqliy va jismoniy charchoq, tajribasizlik va uyalish kabi xolatlarini ifodalaydi. Pushti rang qizil va ko'k ranglardan xosil bo'ladi. Ko'k yoki qora ranglar ko'paysa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oq yoki yorqin ranglar ko'paysa ijobiy tomonga o'zgaradi.

Oq rang yorug'lik, tenglik, bo'shlik, sovuq, tozalik, uyg'unlik, shaffoflik, birlik, engil, boshliq, iloxiy, ma'naviyat, bilim, donolik, soddalik, sezgirlik, adolat, tinchlik, ozodlik, haqiqat, ishonch va poklik kabi ramziy ma'nolarda keladi. Oq rangning ko'p bo'lishi, unda salbiy xususiyatlarni paydo qiladi. Bular umidsizlik, behushlik, bepustlik, zerikish, ehtiyotkorlik, ajrashish kabilardir. Ramziy ma'nolardan insonning ichki kechinmalarini ko'rsatib berishda juda keng qo'llaniladi. Oq rang qo'shilgan ranglar ijobiy tomonga o'zgaradi va shu rangning xususiyatlari paydo bo'ladi. Oq rangga qora yoki to'q tusli ranglar qo'shilsa salbiy tomonga o'zgaradi. Qora rangdan kuch, xokimiyat, oldindan ko'rish qobiliyati, murakkab, nafosat, jiddiylik, mustaqil fikr, olim va sirlilik kabi ramziy ma'nolarni tasvirlashda foydalaniladi. Qora rangning salbiy xususiyatlari zulmat ramzi, sehr-jodu, qo'rquv, o'lim, vayrongarchilik, tajovuzkor, dahshatli, bo'shliq, zaiflik, qayg'u, kasallik, umidsizlik va xudbinlik kabi qahramonning salbiy illatlarini ko'rsatishda ifodalaniladi. Qora rangga oq yoki yorqin ranglar qo'shilsa ijobiy xususiyatlari paydo bo'ladi. Qora rang boshqa ranglarga qo'shilsa salbiy tomonlari hosil bo'ladi. "Qora-mutlaq ibtido va mutlaq intiho rangi. Ularning oralig'i esa hayotning aynan o'zidir" [7, 113 b.].

Kulrangning ramziy ma'nolari, ijobiy xususiyatlari xotirjamlik, umid, aql-idrok, tez faxmlash, aqli raso, hayotga real qarash, barqarorlik va uyg'unlikni yaratadi. Salbiy xususiyatlari odatiy, eski, yo'qotishdan qo'rqish, tushkunlik, kasallik, cheklangan, charchoq, ishonchsizlik, keksalik, zaif, zerikarli, himoyasiz, bezovtalik, befarqlik va qat'iyatsizlik kabi

salbiy illatlarni ko'rsatishda ishlatiladi. Kulrang qora va oq ranglardan xosil bo'lagani uchun qaysi bir rang ko'paysa shu rangning xususiyalari ortib boradi. Vasiliy Kandinskiy ranglarni o'ziga xos ta'riflaydi. "Oq rangni chuqur ijodiy sukunat timsoli, qora rang - yo'qlik, kulrang - umidsizlik, harakatsizlik, qizil - issiq, isyonkor, qudratli, binafsharang - so'nayotgan qizil, jigarrang qattqlik timsoli, zarg'oldoq - atrofni yorituvchi, ko'k - rang chekinayotgan, yashil charchagan insonlarga ijobiy ta'sir qiluvchi sokinlik, bir muncha kuchsiz" [8, 23].

RANGLAR	RANG IQLIMI	RANG XARAKTERLI BELGILARI	RANGNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI
QIZIL RANG	ISSIQ	O'RTA OG'IR, YORUG', YAQIN.	JALB QILUVCHI, ENERGIYA, XUSHOMAD, SEVGI, FAOLLIK.
ZARG'ALDOQ	ISSIQ	YENGIL, QURUQ, YUMSHOQ	FAOLLIK, G'AYRAT, KREATIV FIKRLAR, RIVOJLANISH.
SARIQ	ISSIQ	YENGIL, QURUQ, YUMSHOQ	QUYOSH, YOSHILIK, ENERGIYA, JO'SHQINLIK, HARAKAT, DO'STLIK, OLIJANOBIK, BOYLIK.
YASHIL	SOVUQ	MAYIN, OHISTA.	TABIAT, HAYOT, IBTIDO, UMID, TINCHLIK, YAXSHILIK VA YOSHILIK.
KO'K	SOVUQ	OG'IR, QATTIQ.	SOKIN VA TASHVISH, KESKINLIKNI YENGILASHTIRISH, TINCHLIK VA BARQARORLIK.
MOVIY	SOVUQ	TOZA, YENGIL.	SOKIN, YENIGILLIK, KAMTARLIK, MUVAFFAQIYAT, IJODIY, TINCHLIK, BARQARORLIK.
BINAFSHARANG	SOVUQ	OG'IR, QATTIQ, UZOQ	JO'SHQIN, BADIY, MATONATLI VA TALABCHANLIK.
QORA	SOVUQ	OG'IR, QATTIQ.	SIRLI, QO'RQUV, O'LIM, KUCH, HOKIMIYAT VA NAFOSAT, IJDDIYLIK, MUSTAQILLIK.
KULRANG	SOVUQ	O'RTA OG'IR.	XOTIRJAMLIK, ODATIY, ESKI, TEZ FAHMLAYDIGAN, AQLI RASO, BEPAROLIK, MUSTAQILLIK, QAT'YATSIZLIK.
OQ	SOVUQ	YENGIL, MAYIN.	BO'SHLOQ, SOVUQLIK, MANAVIYAT, BILIM, YORUG'LIK, SODDALIK, SEZGIRLIK, TOZA, FOKLIK.
PUSHTI	SOVUQ	YENGIL, MAYIN.	BEG'UBORLIK, ROMANTIK NAFIS, ZAIF MO'RT, SHIRIN, YUMSHOQ, MEHR-MUHAMMAD.
JIGARRANG	ISSIQ	OG'IR.	KUCH, ISHONCH, SABR-TOQAT, BARDOSH, YANGILIKKA INTILISH, SUKUNAT, YOLG'IZLIK, TINCHLIKSEVAR, AHD.

(2 rasm)

Rangdan unumli foydalanish tomoshabinlarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, ularning xotirasida o'chmas taassurot qoldirish uslubidir. Rangning ramziy va majoziy ma'nolari filmning g'oyasi, qahramonlarning his-tuyg'ulari mohiyatini to'liq ochib beruvchi vositadir. "Kinokartinalarda ranglarning ahamiyati shundaki, rang elementi birinchi navbatda kinofilmga dramatik va dramaturgik faktor sifatida kirib ketadi" [9, 581 b]. Ranglar filmning mohiyatni, voqelikning badiiy jihatlarni, qahramonning his-tuyg'ularini anglashda juda muhim sanaladi. "Rangni iloji boricha har tomonlama o'rganish kerak. Shuning uchun rang doirasidagi ranglarning tartibini ham, umumiy rang uyg'unligi tizimini ham tushunish muhimdir" [10, 36 b.]. Rang doirasini eslab qolish uchun, chet ellik ijodkorlar so'zlar o'ylab topishgan. Bu so'zlarning bosh harflari, spektr ranglarini ketma-ket joylashuvini eslatadi. Bular ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun – "Richard of York Gave Battle in Vain" bu: Red, Orange, Yellow, Green, Blue, Indigo, Violet, rang doirasining ket-ketligi; rus tilida so'zlashuvchilar esa – "Каждый охотник желает знать, где сидит фазан" bu: красный, оранжевый, жёлтый, зелёный, голубой, синий, фиолетовый rang doirisining ketma-ketligi. Bu so'zlarni ishlatib rang doirasining ketma-ketligini eslab qolishadi. O'zbek tilida rang doirasini eslab qolish uchun bunday so'zlar yo'q. Men rang doirasini eslab qolish uchun – "Qor zarralari so'ndi, yashil mavsum, kel bahor!" so'zini taklif qilmoqchiman. Bu so'zning bosh harflari, spektr ranglari; qizil, zarg'oldoq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsha ranglarning ketma-ketligi eslab qolish uchun. Bu so'zdan boshqa so'zlarni ham tuzish mumkin. Lekin bu so'zda, ranglarga nisbat beruvchi, issiq va sovuq kontrast mavjud, qolaversa, spektr ranglari bu kamalakning ranglaridir. Kamalak esa bahor faslida ko'proq paydo bo'ladi. Spektr ranglarini eslab qolish bilan qaysi ranglar qo'shilganida qanday rang paydo

bo'lishi, asosiy va qo'shimcha ranglar qaysilar ekani, issiq va sovuq ranglar, ularning kontrastlari haqida to'liqroq ma'lumot olishda juda muhim.

XULOSA

Filmning rang echimi, rang kompozitsiyasi ham asosiy vositalar sarasiga kiradi. Bu vositalardan oqilona foydalanib, tomoshabinning diqqat e'tiborini tortish, asosiy bo'layotgan voqeaga, qahramonning ichki kechinmalari, uning boshqa odamlar bilan munosabatlarini ko'rsatib, rangli effekt yaratib, badiiy obraz ochib beriladi. Bunda tasvirchi va rassomning mahorati muhim hisoblanadi. Bugungi kungi zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida tasviriy uslubini o'zgartirish, rangni tuzatish, zarur ranglarni ko'paytirish yoki kamaytirish, bir rangni boshqasiga aylantirib, maxsus ranglar tizimini yaratib, dominant rangni xosil qilish, turli xil rang effektlarini o'ylab topish orqali filmning badiiy saviyasini oshirish, tomoshabinga estetik va ruhiy ta'sirni yanada kuchaytirish mumkin. Buning uchun rang ilmini puxta o'zlashtirish, uning xususiyatlarini teran anglash lozim bo'ladi. Rangning kuchidan unumli foydalanib, rejissyor, tasvirchi, rassom va kolorist mutaxassislar vizual effektlarni o'ylab topadilar. Film g'oyasiga mos rang yechimini, rang kompozitsiyasini yaratadilar. Film g'oyasi, janri va zamoniga mos uyg'un ranglar tanlanadi. Filmning janri (fantastik, tarixiy yoki zamonaviy)ga monand dominant yoki monoxrom ranglarning badiiy tizimi yaratiladi.

Ekran ijodkorlari ranglarning ramziy va majoziy ma'nolaridan, kontrasti, dinamikasi, nafasi yoki qattqligidan, uyg'un ranglar kombinatsiyalaridan oqilona foydalanib rang dramaturgiyasini yaratadilar. Natijada esa tomoshabinlarga badiiy yetuk filmni xavola etadilar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rangning ramziy ma'nosini, sir-sinoatlarini, rang kombinatsiyalarini uyg'unlashtirib, rang tilini topa olgan ijodkorlarga rang dramaturgiyasini yarata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Xudayberganov R. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. – T., 2017.
- Ландо С. М. Кинооператорское мастерство. Цвет в фильме. – СПб., 2017.
- Ландо С. М. Кинооператорское мастерство. Цвет в фильме. – СПб., 2017.
- Bulatov S. Rangshunoslik. – T., 2007
- Базыма Б.А. Психология цвета. Теория и практика. – М.: Речь. 2005. 112 с.
- Браэм Г. Психология Цвета. 2009. 162 с.
- Браэм Г. Психология Цвета. 2009. 162 с.
- Познин В. Цвет как элемент драматургии фильма. / Вестник СПбГУ. Искусствоведение. 2021. Т. 11. Вып. 3.
- Эйзенштейн С. Избранные произведения: В 6 т. – М., 1964-71. – Т. 3. 581 с.
- Иоханнес И. Искусство формы. Перевод с немецкого и предисловие Л.Моноховой. – Издатель Д.Аронов, 2001.
- Тайная жизнь цвета. Кассия Сен-Клер. – М., 2018. 324 с.
- Забозлаева Т. Б. Символика цвета. – СПб.,

2011.178 с.

13. The makeup artist handbook : techniques for film, television, photography, and theatre Gretchen Davis. Mindy Hall. – NY., 2012.

14. В. Познин. Изобразительное и звуковое решение экранного произведения – СПб., 2015. 236 с.

15. Литвинцев А. Э. Свет и цвет как средства экранной документалистики. / Известия УрФУ. Серия 1. Проблемы образования, науки и культуры. 2023. Т. 29. № 3.

16. Парфенова М.А. Макарова Т.Л. Символика цвета в дизайне костюма персонажей фильмов / Научный журнал «Костюмология», 2019.

№2.

17. Хуркман А. Цветокоррекция. Кинопроизводство и видео. 2020. 335 с.

18. Брюс Блок. Визуальное повествование. Создание визуальной структуры фильма, тв и цифровых медиа. 2012. 322с.

19. Рудольф А. Искусство и визуальное восприятие. – М.: 1974. 384 с.

20. Мишель П. Белый, синий, желтый, черный, зеленый, красный История цветы. Серия: “Библиотека журнала” “Теория моды”.